

UDK:632.772

ZARAFSHON VOHASIDA CHAKANDA PASHSHASI (*Regolitis batava obscuriose Nel.*) NING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA ZARARI

Fayzullayev Burxon – O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti Samarqand mintaqaviy filiali. Malikov Dilshod – SamDU Kattaqo‘g‘on filiali

Annotation. This article is devoted to the study of the biology and ecology of the sea buckthorn fly (*Regolitis batava obscuriose Nel.*) in the conditions of the Zarafshan Valley. Sea buckthorn is a medicinal plant; the fruit contains valuable vitamins necessary for human health. One of the pests of sea buckthorn is the sea buckthorn fly (*Regolitis batava obscuriose Nel.*), which, in the absence of the necessary protective measures, causes 70-90% damage to sea buckthorn fruits.

Key words: tugai, valley, sea buckthorn, habitat, egg, larva, entomophage, ecosystem, pheromone, attractant.

Kirish. Chakanda dorivor o‘simligining entomofaunasi Zarafshon vohasi sharoitida etarlicha o‘rganilmagan. O‘rta Osiyo zararli hayvonlari nomli kitobda (1949) chakandada to‘rt xil zararli hasharotlar oziqlanishi ko‘rsatilgan. Bular chakanda biti, oq vanessa, tengsiz ipak qurti va tamariq bargxo‘ri. G.K.Dubrovskiy (1966) Farg‘ona vodiysida chakandaga *Onkopsis* avlodiga mansub bo‘lgan saratonlarning ikki turi zarar etkazishi to‘g‘risida ma‘lumotlar bor. Chakanda pashshasi (*Regolitis batava obscuriose Nel.*) B.S.Ermakov (1978) va J.I.Gotin (1963) ma‘lumotlariga ko‘ra Oltoy o‘lkasida qarshi kurash choralari o‘tkazilmaganda alohida olingan dalalarda hosil butunlay yo‘qotilganligi e‘tirof etilgan [1].

Zarafshon vohasida Zarafshon daryosi bo‘ylaridagi to‘qaylarda chakanda o‘simligi ko‘p o‘sadi va ularni zararkunandalardan himoya qilish dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqot sharoiti va usullari. Bizning tadqiqotlarimiz 2022-2024 yillarda Zarafshon daryosi to‘qaylaridagi chakandazorlarda o‘tkazildi. Hasharotlar Zarafshon tabiat milliy bog‘i va Zarafshon daryosi bo‘yidagi to‘qaylardan yig‘ildi. Bunda A.I.Ilinskiy (1965) va K.K.Fasulati (1971) usullaridan foydalanildi, hamda daraxt tanalarini vizual kuzatish, novda va shoxlarni silkitish yo‘li bilan hasharot lichinkalarini

tushirish kabi o'zgartirishlar ham qo'llanildi. Chakanda daraxtlarining odam bo'yi etadigan balandlikdagi shoxlarini qo'l bilan va tayoq bilan silkitib, daraxt tagiga oq mato to'shab, tushgan hasharotlar probirkalarga, bankalarga yig'ilib, laboratoriyada tahlil qilindi [5].

Tadqiqot natijalari. Chakanda pashshasi (*Regolitis batava obscuriose Nel.*) tuproqda 5 sm chuqurlikda g'umbak holida qishlaydi. Pashshalar iyunning ikkinchi yarmi va iyulning birinchi yarmida uchib chiqadi. 14-25 kun oralig'ida urg'ochi pashshalar chakanda mevalarining po'sti ostiga tuxum qo'yadi. Tuxumdan ochib chiqqan lichinkalar 15-18 kun davomida meva mag'zi bilan oziqlanadi va keyin qishlash uchun tuproqqa kiradi. Ommaviy g'umbakka ketish avgust oyining oxirida yakunlanadi. Kuzatishlar natijalari ko'rsatishicha chakanda meva pashshasi bizning sharoitimizda har yili umumiy hisobda 10-15% chakanda mevasini zararlaydi. Alohida olingan shoxlardagi mevalar 20% dan 90% gacha zararlanishlar ham kuzatildi.

Jadval 1

Chakanda mevalarining chakanda pashshasi lichinkalari bilan zararlanishi (dona)

Namunalar	Namuna olingan shoxdagi jami mevalar	Shundan		Zararlanish, %
		zararlangan	zararlanmagan	
13.08. 2023 y.				
1	300	270	30	90,0
2	650	250	400	38,4
3	350	270	80	77,1
4	350	100	250	28,5
5	280	130	150	42,8
15.08.2024 y.				
1	150	95	55	63,5
2	270	190	80	70,3
3	363	250	113	70,0
4	455	325	130	72,2
5	122	80	42	66,6
	3290	1940	1350	59,0

Zararlangan mevalar burishib qurib qoladi va o'z iste'mol qiymatini yo'qotadi.

Shunday qilib, ushbu zararkunanda chakandaga jiddiy zarar etkazadi. Ammo bunday zararkunandalar kompleksiga qarshi kurash ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Chunki chakandaning ko'p qismi Zarafshon tabiat milliy bog'i hududida o'sadi va bu

yerda tabiiy ekotizimlarga inson ta'siri taqiqlangan. Boshqa joylardagi tabiiy chakandazorlar, butazorlar va o't o'simliklar bir qator zararkunanda hasharotlar uchun qulay yashash makoni bo'lib hisoblanadi. Zararkunanda hasharotlar miqdorini va zararlanish darajasini ularning tabiiy entomofaglari yordamida tartibga solish mumkin. Bu borada chakandazorlarni biologik usulda himoya qilish samarali tadbir bo'lib hisoblanadi. Bunga entomofaglarni areal dorasida zararkunandalar to'plangan joylarga ko'chirish, entomofaglarning tabiiy ko'payishiga sharoit yaratish, hasharotxo'r qushlarni ko'paytirish va muhofaza qilish tadbirlari kiradi.

Bundan tashqari yorug'lik tutqichlardan, feromonlar va attraktantlardan, elimli belbog'lardan foydalanish va zararkunanda hasharotlar uyalarini, qishlovga ketadigan joylarini buzish va boshqa mexanik tadbirlarni ham amalga oshirish mumkin.

Xulosalar. 1.Zarafshon vohasi sharoitida chakanda pashshasi (*Regolitis batava obscuriose Nel.*) Zarafshon daryosi qirg'oqlaridagi tabiiy chakandazorlarda chakanda mevasiga jiddiy zarar etkazadi.

2.Tabiiy sharoit qulay kelgan yillarda chakanda pashshasi 70-90% chakanda mevalarini zararlashi mumkin.

3.Tabiiy chakandazorlar ekotizimlarini saqlab qolish uchun chakanda zararkunandalariga qarshi biologik va mexanik usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бронштейн Ц.Г. Материалы по фауне и биологии жуков-листоедов (Chrysomelidae) Зеравшанской долины. Труды СамГУ. Нов.сер. Вып. 109, Самарканд. -1961. С.192.

2.Гиляров М.С. Изучение беспозвоночных животных как компонента биоценоза. Программа методика биоценологических исследований. - М.,1996. - С. 16-21.

3.Зокиров К.З. Флора и растительность бассейна реки Зарафшан. Ч.1. Растительность. – Ташкент, АН УзССР. - 1995. - 103с.

4.Палий В.Ф. Методика изучения фауны и фенологии насекомых. Воронеж, 1970. - 185 с.

5.Фасулати К.К. Полевое изучение наземных беспозвоночных животных. М.: Высшая школа, 1971. - 386 с.

6.Халимов Ф. З. Особенности взаимоотношений капустных мух и их энтомофагов на разных по устойчивости сортах капусты. Автореферат диссертации к.б.н. С.-Петербург. -1995. -21с.